

# **Uzbekistan Airways Qarshi shahrida sayyor qabul o'tkazdi**

**2024 28 Noyabr**

27-noyabr kuni Qarshi shahrida Uzbekistan Airways rahbariyati sayyor qabul o'tkazdi. Ochiq muloqot shaklida tashkil etilgan tadbir davomida mahalliy aholi va sayyohlik agentliklari vakillari aviakompaniya faoliyati va kelgusi rejalari haqida to'g'ridan-to'g'ri savollar berish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ishtirokchilar joriy va yangi aviaqatnovlar, marshrut tarmog'ini kengaytirish istiqbollari, aviaqatnovlar va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan tashabbuslar bilan tanishdilar.

Toshkent – Qarshi – Toshkent yo'nalishiga alohida e'tibor qaratildi. 30-noyabrdan boshlab Silk Avia ushbu yo'nalishdagi parvozlarni haftasiga 10 tagacha oshiradi, bu esa hududga tashrif buyurishni yanada qulayroq bo'lishini ta'minlaydi.

Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Qarshi shahridan Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshiradi. Parvozlarni jadvali bilan tanishish va aviachiptalarni [booking.uzairways.com](http://booking.uzairways.com) sayti, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.

OHILADI.  
IRZIOYEV







**BARAMUKHAMEDOVA**  
Gulnara Akmaljonovna

**MATYOQUBOV**  
Ruslan Palvannazarovich

**UZBEKISTAN**  
AIRWAYS

